KONFUTSIY TA’LIMOTLARINING XITOY SIYOSIY MODERNIZATSIYASIGA SINTEZI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-24-93-93

Abdulxayev Abdurashid Nodir o‘g‘li
TDSHU mustaqil tadqiqotchisi
abdulkhayev-1188a@gmail.com

SYNTHESIS OF CONFUCIAN TEACHINGS INTO CHINA’S POLITICAL MODERNIZATION

Abdulkhayev Abdurashid
Independent Researcher of TSUOS
abdulkhayev-1188a@gmail.com

Abstract. *This thesis analyzes the role of the core ideas and values of Confucian teachings in the process of China’s political modernization. It also examines the significance of the Confucian heritage in shaping China’s political thought, model of state governance, and the value foundations of its modernization processes. The study aims to substantiate the argument that the synthesis of Confucian traditions and modern political modernization constitutes one of the important intellectual and institutional factors underlying China’s development model.*

Keywords: *Confucianism, China, political modernization, Confucian values, state governance, political thought, social stability, ethical governance, China’s development model.*

Tarixan Konfutsiy g‘oyalari Xitoyning qadimgi intellektual me’roslaridan biri bo‘lib, uning siyosiy ta’limoti nafaqat Xitoyga, balki boshqa mintaqa davlatlari, ayniqsa, Sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Konfutsiy qadriyatlari hozir ham xitoyliklarning turmush tarzini belgilab bermoqda. Ayni payt Xitoyda rasmiy siyosiy diskurs rivojlanishi Konfutsiy elementlarini Kommunistik mafkuraga izchil integratsiya qilish doirasida amalga oshirilmoqda. Konfutsiy ta’limotlarining siyosiy asosini ijtimoiy ierarxiya to‘g‘risidagi g‘oyalar tashkil etadi. Konfutsiy ta’limotining siyosiy jihatlari boshqaruvchi shaxsning axloqiy kamolotini taqozo etib, u o‘zida ijobiy ma’naviy fazilatlarni mujassamlashtirishi lozim [Wang 2011:148].

Dunyoda iqtisodiy ta’sirning kuchayishidan keyin Konfutsiy loyihasi globallashuvi hozirgi Xitoyda an’anaviy madaniy oqimlarning qayta tiklanishiga ko‘maklashmoqda. Xitoyda milliy madaniyatga qiziqish ortishi vaqt jihatidan “islohotlar va ochiqlik” davrining boshlanishi bilan mos tushadi. Siyosiy modernizatsiyani amalga oshirishda Konfutsiy boshqaruv mexanizmlariga murojaat etish davlatning milliy, ijtimoiy va partiyaviy siyosatida o‘z ifodasini topmoqda. Bu jarayonlar natijasi Konfutsiy g‘oyasi Xitoyda va undan tashqarida ommalashuvidir. Konfutsiy g‘oyalarining davlatni boshqarishdagi muvaffaqiyati Xitoy mentalitetining an’anaviy xususiyatlarini ifodalash, shaxs va davlatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan jihatlarni ajratib ko‘rsatish bilan belgilangan [Суворов 2022:63-67]. Hozirda Xitoy rahbarlari tomonidan Konfutsiy qadriyatlari Xitoy Kommunistik partiyasining siyosiy yo‘nalishiga xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanishni ta’minlash maqsadida faol qo‘llanilmoqda. Konfutsiy ta’limotlariga qaytish Xitoyni modernizatsiya qilish konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, Konfutsiy madaniyati hozirgi Xitoyning ijtimoiy-siyosiy hayotida universal islohotchilik omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wang B. History of Chinese Confucianism. Pre-Qin Volume. -Beijing: Peking University Press, 2011.
2. Суворов В.В., Фахрудинова Э.Р. Политика памяти и этические основания доктрины конфуцианства // Общество: философия, история, культура. 2022. № 3 (95). -С. 63-67.